# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 3



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 796 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.*


**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi


Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана........ 10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович

Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqa investitsiya jozibadorligini oshirish ........ 16
Ahmedov Alim Babaniyazovich

O‘zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi........ 22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug‘bek Mirzayevich, Mamanov Alisher

Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan........ 28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna

Oliy o‘quv yurtlarida matematik statistikani o‘qitishning xususiyatlari........ 34
Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo‘razovna

Turizmda tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari ........ 37
Mardonova Dilafruz Kosimovna

Oziq-ovqat xavfsizligi ta’minoti: O‘zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari........ 41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o‘g‘li

Mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘rni va roli ........ 46
Akramov Azamat Ramziddinovich

Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati........ 53
Iminov Mahmudjon Azimjon o‘g‘li

Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi........ 60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich

Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim mezoni........ 65
Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich

Iste’molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish........ 70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish ........ 75
Mirzayeva Nargiza Batirovna

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni........ 80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi

Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari........ 84
Quldoshev Asliddin Tursunovich

Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash........ 89
Nasriyeva Zebiniso A’zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo‘llari ........ 100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna

Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta’minlashning ekonometrik tahlili ........ 105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna

Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств........ 111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович

The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan........ 116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambagʻallikni qisqartirishdagi ahamiyati ... 121
**Abdullayev Habibullo Asadulla oʻgʻli**

Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar ... 125
**Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi**

Amerika Qoʻshma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari ... 131
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi**

Oʻzbekiston Respublikasida qishloq xoʻjaligini innovatsion rivojlanish yoʻllari ... 135
**Axmedova Nafisa Amirddin qizi**

Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry ... 140
**Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna**

Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish koʻrsatkichlarini prognozlash va modellashtirish ... 144
**Bobomuratov Imomqul Islamovich**

Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili ... 149
**Talipova Dilfuza Nabiyevna**

Agrar soha korxonalarining moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ... 154
**Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon oʻgʻli**

Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue ... 158
**Meyliev O. R., Gofurova K.**

Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtsodiy rivojlanishiga ta'siri ... 166
**Hazratqulov Shahboz Boboqul oʻgʻli**

Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan ... 170
**Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna**

Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini oʻtkazish amaliyoti ... 174
**Joʻrayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi**

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari ... 178
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna**

Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish ... 183
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**

Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan oʻrni va ularning rivojlanishi ... 188
**Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich**

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari ... 194
**Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna**

Oʻzbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga oʻtish samaradorligini oshirish ... 200
**Mirzayev Bexruz Abdulla oʻgʻli**

Andijon viloyatida kambagʻallik darajasini qisqarishiga taʻsir etuvchi koʻrsatkichlar ... 214
**Musaeva Ziyoda Allayarovna**

Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi eksportida marketing muammolari ... 218
**Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich**

Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari ... 223
**Akramova Nargiza Axrorovna**

Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qoʻllash shart-sharoitlari ... 227
**Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi**

Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning oʻziga xos xususiyatlari ... 231
**Nazarova Latofat Toirjon qizi**

Oʻzbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllari ... 235
**Nurmuxammedov Matlab Yunusovich**

Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish ........ 240
**Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li**

Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv ........ 246
**O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov**

Methodological Aspects for Branding in Private Schools ........ 251
**Odilova Sitora Sayfitdin qizi**

Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора ........ 256
**Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли**

Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish ........ 261
**Rajabov Orzujon Mamasoliyevich**

Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari ........ 267
**Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari ........ 275
**Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi**

Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi ........ 279
**Saidqulova Firuza Farmonovna**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 283
**Salimov Sherzod Baxtiyorovich**

O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili ........ 288
**Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna**

Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari ........ 294
**Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi**

The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions ........ 303
**Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi**

Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish ........ 307
**Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich**

Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlilikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish ........ 311
**Xasanova Nasiba Tolliboy qizi**

Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari ........ 314
**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

Oliy ta'lim muassasalarida gibrid bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish ........ 319
**Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li**

Роль инвестиций в ситеме железнодорожного транспрта в Республике Узбекистан ........ 325
**Акбарова Лайло Упашевна**

Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari ........ 330
**Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.**

Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida ........ 334
**Davlayev G'olib Ashurovich**

Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi ........ 337
**Djurayeva Dilnoza Davron qizi**

Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari ........ 343
**J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov**

Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar ........ 348
**Jorabayev Jasur Abduraxmanovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi ........ 354
**Ibragimov M. M., Ergashev O. F.**

Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari ........ 358
**Karimov Anvar Aktam o‘g‘li**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo‘llari ........ 362
**Qurbonov Muxiddin Abdullayevich**

Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar ........ 367
**Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari ........ 373
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich**

Paxta-to‘qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi ........ 380
**Mansurov Saidxo‘ja Kamalovich**

Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari ........ 386
**Musyeva Shoira Azimovna**

Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением ........ 390
**Нодирбек Холбаев**

Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta’sirini statistik baholash ........ 396
**Nuriddinov Zufar Akbarovich**

Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана ........ 402
**Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич**

O‘zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish ........ 408
**Oybek Elmuratov**

Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari ........ 411
**Maxmudova Nargiza Davlyat qizi**

Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract ........ 416
**Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi**

Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati ........ 421
**Abduqaxorov Bekzod O‘tkir o‘g‘li**

Raqamlashtirish iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida ........ 426
**Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi**

O‘zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri ........ 431
**Norqobilov Akobir Iso o‘g‘li**

Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане ........ 437
**Аскаров Бахтиер Аскарович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева**

Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан ........ 442
**Холиков Сулаймон Уткир угли**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari ........ 447
**Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna**

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili ........ 452
**Sayfullayev Siddik Nosirovich**

Sug‘urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash ........ 457
**Sattorov Shoxrux Maxmudjon o‘g‘li**

Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari ........ 462
**Turdiyeva Uzayda Omirbayevna**

Адаптивный искусственный интеллект в управлении человеческими ресурсами ........ 469
**Хайдарова Малика Шокирджановна**

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida ........ 478
**Xayriddinov Shuxrat Botirovich**

Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari ........ 482
**Shaislamova Nargiza Kabilovna**

Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari ........ 491
**Yunusova Ozoda Anvarjon qizi**

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari ........ 498
**E. N. Raximov**

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi ........ 504
**Avazov Ilxom Ravshanovich**

Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish ........ 509
**Djuraeva Guzal Shavkatovna**

Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 513
**Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li**

Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari ........ 517
**Igitov Jurabek Kuzibekovich**

The impact of corporate governance on firm performance and financial stability ........ 524
**Muhammadyor Yunusov**

Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari ........ 537
**Musulmonova Shahlo Nasriddinovna**

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish yo'llari ........ 541
**Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina**

Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari ........ 544
**Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi**

Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari ........ 550
**Umarova Hulkar Umidulloyevna**

O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi ........ 555
**Do'stova Aziza Qahramonovna**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari ........ 559
**Iroda Majidova**

Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari ........ 565
**Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li**

Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari ........ 569
**Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi**

"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны ........ 573
**Тураева Адиба Икрамовна**

Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi ........ 580
**Xasanov Rustam Rabimovich**

Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari ........ 583
**Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich**

Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта ........ 588
**Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.**

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati ........ 594
**Choriyeva Nigina Kaxramonovna**

Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari ........ 598
**Alimbayeva Sevara Alimbayevna**

Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi ........ 601
**F. Jumaniyazova, G'ulomov Ibroxim Rustam o'g'li**

The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market ........ 607
**Khasanov Umarbek Begmat ugli**

Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari ........ 613
**Mamasoatov Dilshod Ravshanovich**

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari ........ 621
**Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li**

Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish ........ 627
**Maxammadiyev M. M.**

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari ........ 632
**Narzullayeva Gulchehra Salimovna**

Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari ........ 636
**Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li**

Загрязнение окружающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения ........ 644
**Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукуров Тимур Умидович**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish ........ 649
**Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna**

Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan ........ 656
**Hakimov Feruz Khurshid ugli**

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili ........ 659
**Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna**

Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashitirish imkoniyatlari ........ 665
**Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich**

Ipotekali kreditlashni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari ........ 670
**Turdiev Shaxriddin Erxonovich**

Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari ........ 675
**Berdiyev Anvar Abdivaliyevich**

Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi ........ 681
**Meliyev Isroil Ismoilovich**

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi ........ 686
**Urunbayev Saparbek Samatovich**

Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 692
**Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich**

O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar ........ 699
**Baymuradov Shoxrux Maxmudovich**

Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape ........ 704
**Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov**

Xalqaro migratsiyaning O‘zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta’siri ........ 709
**Tilabova Kumush Farhod qizi**

Анализ и оценка естественного освещения помещений образовательных учреждений ........ 714
**Пирмухамедова Шахноза**

Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан... 719
**Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи**

Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли ........ 725
**Бибутова Шахло Саъдуллаевна**

Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari ........ 730
**Axmedova Dilbar Buronovna**

Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishda sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati........ 734
**Ishmanova Diana Nurmamadovna**

Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari ........ 737
**Muxtorova Madina Azamat qizi**

Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar ........ 741
**A’zamxo‘jayeva Nihola Sulaymon qizi**

Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari ........ 746
**Yodgorova Xalima To‘lqinovna**

Budjet ijrosini samarali ta’minlashda davlat xaridlarining ahamiyati ........ 752
**Sholdarov Dilshod Azimiddin o‘g‘li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna**

Aholi sog‘ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir ........ 763
**Djumabayeva Shaira Xalillayevna**

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati ........ 769
**Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o‘rni ........ 778
**Valiyeva Sayyora Xushbaqovna**

Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas’uliyat (“Rossiya temir yo‘llari” OAJ misolida) ........ 784
**Xidirova Marg‘uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o‘g‘li**

Raqamli transformatsiyaning O‘zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta’siri ........ 790
**Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# INVESTITSION MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA MINTAQA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

**Ahmedov Alim Babaniyazovich**
Termiz davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikni milliy iqtisodiyotning investitsiya jarayonini makro, mezo va mikro darajada osonlashtiradigan yoki to‘sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yig‘indisi sifatida aniqlash mumkinligi ishonchli argumentlar asosida atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga, investitsion jarayonni yanada rivojlantirish yo‘lida faqatgina hukumatning roli emas, balki xususiy korxonalarning ahamiyati ham muhimligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, investitsiya muhiti, umumiy iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardosh mahsulot, daromad, modernizatsiya.

Abstract: In this article, the investment attractiveness can be defined as a set of objective and subjective conditions that facilitate or hinder the investment process of the national economy at the macro, meso, and micro level. At the same time, not only the role of the government, but also the importance of private enterprises will be considered in the further development of the investment process.

Key words: national economy, investment environment, general economic development, competitive product, income, modernization.

Аннотация: В данной статье инвестиционную привлекательность можно определить как совокупность объективных и субъективных условий, облегчающих или затрудняющих инвестиционный процесс национальной экономики на макро-, мезо- и микроуровне. При этом в дальнейшем развитии инвестиционного процесса будет учитываться не только роль государства, но и значение частных предприятий.

Ключевые слова: национальная экономика, инвестиционная среда, общеэкономическое развитие, конкурентоспособный продукт, доход, модернизация.

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab qiladi va bu o‘z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqiyosdagi investitsiyalarni talab qiladi. Bu o‘z o‘rnida bugungi kunda mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar ahamiyatini namoyon etmoqda.

Mamlakatimizda 2020-yilda iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirishning eng ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan edi. Ushbu ustuvor yo'nalishlardan kelib chiquvchi vazifalarni amalga oshirishda salmoqli natija va sezilarli o‘zgarishlar qo‘lga kiritildi. Iqtisodiyotining yuqori barqaror sur’atlar bilan o‘sishi va makroiqtisodiy mutanosibligi ta’minlanib, ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish va modemizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlari davom ettirildi. Shu o‘rinda investitsiya jarayonlarining ya’ni xorijiy investorlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tish joiz.

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, mintaqa marketingini turli xil bozor subyektlari bilan bunday munosabatlarni o‘rnatish, yaratish va qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida aniqlash mumkin, bu mintaqaga resurslar hamda maqsadli bozorlar bo‘yicha foydali mavqelarni ta’minlaydi, shuningdek, munosabatlar ishtirokchilarining ushbu bozorga erishishga imkon beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barskiy Y.M. oʻzining asarlarida taʼkidlab oʻtganidek, ijobiy investitsiya muhitini shakllantirishning asosiy jihati mamlakat imijidir, chunki uning darajasi investorning kutganlariga qanchalik kam javob bersa, investitsiya muhiti shunchalik past baholanadi va investitsiya muhitini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bunda albatta, har bir investor mamlakatga jalb qilinadigan investitsiyalarga qoʻyilgan imtiyozlarga eʼtibor qaratadi chunki, davlat qanchalik koʻp imtiyoz beradigan boʻlsa, shuncha koʻp investorlar qiziqish bildirishadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Xodjamuratova G.Y. ushbu fikrni ilgari surgan: investitsiya marketingining vazifasi daromad (foyda)ni eng yuqori darajaga olib chiqish emas, balki kompaniya (firma)larning rivojlanish jarayonida ularning yetarli darajada moliyaviy barqaror boʻlgani holda, iqtisodiy tarqqiyotning yuksak surʼatlarini taʼminlashi vazifasi ustuvor hisoblanadi

Yana bir olimimiz Akramov T.A. marketing kuzatishlari investitsiya qoʻyiladigan mamlakatning tabiiy, iqlim sharoiti, milliy xususiyatlari, aholining xarid quvvati, sotiladigan bozori, xom ashyo bozori kabilar oʻrganiladi, deb oʻtgan. Shu bilan birga, shu mamlakat hududlari oʻrganilib, ularni investitsiyaga boʻlgan talabi haqidagi axborotlar toʻplab borilishi xususida argumentni ilgari surgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi anʼanaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning turizmda tadbirkorlikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy yondashuvlarga koʻra, mintaqa marketingini turli xil bozor subyektlari bilan bunday munosabatlarni oʻrnatish, yaratish va qoʻllab-quvvatlash usuli sifatida aniqlash mumkin, bu mintaqaga resurslar hamda maqsadli bozorlar boʻyicha foydali mavqelarni taʼminlaydi, shuningdek, munosabatlar ishtirokchilarining ushbu bozorga erishishga imkon beradi. Bu esa, oʻz navbatida, “4P” kompleksi vositalaridan foydalangan holda mintaqaviy marketing investitsiya loyihasining (alohida mintaqaning) uni investitsiya mahsuloti sifatida tavsiflovchi quyidagi xususiyatlarini ajratib koʻrsatishga imkon beradi:

1) ushbu oʻziga xos “tovar” (“product”)ni investorning ehtiyojlarini toʻliq qondirish qobiliyati sifatida mintaqaning investitsion jozibadorligi (xaridor bilan oʻxshashlik);
2) “joylashuv” (“Place”) deganda hududiy dastur va loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish tushunilishi kerak;
3) oluvchiga loyihani amalga oshirish uchun zarur boʻlgan investitsiya resurslari miqdori “narx” (“price”) boʻlimida belgilanishi kerak;
4) “ragʻbatlantirish” (“promotion”) yoki “aloqa” ostida – investitsiya jarayonida potensial investorlarga investitsiya loyihasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni “yetkazib berish”ning optimal sxemasini tanlash potensial yaʼni, isteʼmolchilarga (investorlarga) mahsulotning (investitsiya loyihasining) afzalliklari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni yetkazish va uni “sotib olish” istagini ragʻbatlantirish boʻyicha turli xil faoliyat turlari majmui tushunilishi kerak.

Mintaqaviy marketingning belgilangan vositalaridan maʼlum bir mintaqaning yangi raqobatdosh ustunliklarini yaratish, maqsadli auditoriyaga taʼsir qilish va shu bilan iqtisodiy agentlarni jalb qilish uchun samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari, mintaqaning marketing sohasidagi investitsiya faoliyatini faollashtirish quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- hududning shakllanishi va rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning imijini shakllantirish va yuksaltirish dasturlarini ishlab chiqish hamda kelgusida brendingni mintaqaning ijobiy imijini shakllantirishning alohida vositasi sifatida amalga oshirish;
- boshqaruv organlariga ham, ayrim korxonalarga ham joriy isteʼmolni, ishlab chiqarish hajmlarini, tabiiy resurslardan foydalanishni oshirmasdan, hududlar qiymatini sezilarli darajada oshirish, investitsiya resurslarini jalb qilish imkonini beradi;
- tashqi investorlarni koʻpaytirishga qaratilgan tabiiy, moddiy-texnika, moliyaviy, mehnat, tashkiliy, ijtimoiy va boshqa resurslarning jozibadorligini oshirish aloqa faoliyati:
- hududiy, shuningdek, bunday resurslarni amalga oshirish va tiklashda hududning rivojlanishi, faoliyat yuritishi va imiji ularning muvaffaqiyatli faoliyatiga bogʻliq; ommaviy axborot vositalari va reklama boʻyicha imkoniyatlarini eʼtiborga olish lozim. Bunday faoliyat hududiy marketing markazi orqali hududiy hokimiyat vakillaridan, yetakchi korxonalar egalaridan iborat notijorat sheriklik deb ataladigan tadbir agentliklari vakillari shaklda amalga oshirilishi mumkin. Xususan:
- sarmoyadorlarni internet-portal orqali axborot bilan taʼminlash, tahliliy maʼlumotlarni ishlab chiqish va

tarqatish, xalqaro forumlar hamda ko'rgazmalarda ishtirok etish, mintaqada sarmoya bilan bog'liq tadbirlarni muntazam tashkil etish ham muhim;

- mintaqa va uning subyektlarining xalqaro milliy, mintaqaviy va mintaqalararo dasturlarni amalga oshirishda, shuningdek, mintaqada davlat hamda boshqa buyurtmalarni joylashtirishda samarali ishtirokini tashkil etish va ta'minlash;
- sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish;
- yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish,
- sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish.

"Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

Surxondaryo viloyatining investitsion jozibadorligi hududning geografik joylashuvi (chegara, transport) bilan bir qatorda tabiiy xususiyatlar va mehnat salohiyatining afzalliklari bilan bog'liq bo'lib, ulardan hududda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha muloqot o'tkazish mintaqaning iqtisodiy salohiyati va aholi farovonligini oshirish uchun transchegaraviy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun faol foydalanish kerak.

Bu borada Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yilda 17956,0 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, bu o'tgan 2022-yilga nisbatan 55,2 foizga oshgan. Bunda 2015-yilda viloyatga bor-yo'g'i 191,7 mlrd. so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 11114,8 mlrd. so'mga yetdi. Bunda eng yuqori ko'rsatkich Boysun tumanida 3179,3 mlrd. so'm va Sherobod tumani 3260,9 mlrd. so'm jalb qilgani bilan ijobiy natijalarga erishmoqda. Umuman olganda, xorijiy investitsiya va kreditlari jalb qilishda viloyat o'rtachasi(53,0 %)dan yuqori bo'lgan qiymatlarga Oltinsoy (58,4 %), Angor(60,3 %), Bandixon(59,9 %), Boysun(91,8 %), Muzrabot(56,4 %), Jarqo'rg'on(64,7 %) va Sherobod(90,2 %) tumanlari to'g'ri kelgan bilan AQSh to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, ularning miqdori kishi boshiga 194,0 dollarni tashkil etdi(1-rasm).




1-rasm: Surxondaryo viloyatiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar dinamikasi

Rasmda keltirilgan 2015-yil va 2023-yillarda Surxondaryo viloyatiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2015-yilda tumanlar aro o'rtacha xorijiy investitsiya hajmi 9,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yildga kelib bu ko'rsatkich 43,9 foizga oshib 53,0 %ni tashkil etdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investorlarning qarorlari samaradorligini baholash uchun qiyin bo'lgan bir qator subyektiv omillar ta'sir qilishi aniqlandi, shu bilan birga, ular qisman investorning bilimlari bilan belgilanadigan individual imtiyozlar tizimini ifodalaydi, shu jumladan, mintaqaning tasviri. Tadqiqot mintaqaviy marketing doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan marketing vositalarini o'rganadi. Bizningcha, hududiy marketing asosida:

- mintaqaning raqobatbardosh ustunliklari baholanadi va qo'llab-quvvatlanadi, boshqa raqobatdosh hududlarga nisbatan uning investitsiyalar uchun jozibadorlik darajasi aniqlanadi;
- ma'muriy-hududiy obyektning raqobatbardoshligi parametrlari uning bozor o'zgarishlari va bozor jarayonlariga moslashish asosida uzluksiz rivojlanish qobiliyati sifatida tahlil qilinadi.

Umuman olganda, mintaqaning investitsion jozibadorligini tahlil qilishda "4R" kompleksi vositalaridan foydalangan holda real investitsiya jozibadorligini aniqlash kerak, bu esa investitsiya mahsuloti sifatida investitsiya loyihasining (alohida hudud) tavsiflovchi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu yo'nalishdagi istiqbollar maqsadli auditoriyaga ta'sir ko'rsatadigan va shu tariqa iqtisodiy subyektlarning faolligini oshirish

uchun mintaqaning yangi raqobatdosh ustunliklarini shakllantirishda foydalanish uchun mintaqaviy (hududiy) marketing vositalarini o‘zgartirishdan iborat.

So‘nggi paytlarda ilmiy ishlarda va ilmiy-ommabop nashrlarda investitsiya loyihasi (korxona) muayyan mahsulot sifatida qaraladigan yondashuvni uchratish mumkin[1]. Yuqoridagilarni hisobga olsak, nafaqat investitsiya loyihasini mahsulot sifatida, balki butun korxonani ham ko‘rib chiqish mumkin. Shunda korxonaning investitsion jozibadorligini marketing nuqtayi nazaridan, korxonaning investitsion faoliyatini esa mahsulot sifatidagi sifatini oshiradigan iqtisodiy faoliyat sifatida baholash mumkin.

Kompaniyaning zamonaviy faoliyatida bozor munosabatlarining asosiy agenti sifatida iste’molchining ustuvorligiga asoslangan tadbirkorlikka bozor yondashuvini o‘z ichiga olgan marketing konsepsiyasining ta’rifi muhim rol o‘ynaydi[2].

Marketingning ijtimoiy yo‘naltirilgan konsepsiyasi ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar va butun jamiyat manfaatlarining uyg‘unligi bilan tavsiflanadi. Ushbu konsepsiyani institutsional nazariya doirasida ko‘rib chiqsak, shuni ta’kidlash kerakki, turli institutlarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish korxonaning investitsion jozibadorligini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, korxonada ijtimoiy yo‘naltirilgan marketing jarayonlari samaradorligini oshiradi.

Institutsionalizm nazariyasi nuqtayi nazaridan investitsiya jarayoni subyektlarining iqtisodiy manfaatlari bo‘ysunish darajasi qanchalik katta bo‘lsa, investitsiyalarni joriy etishning ijobiy ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladi. Investitsion jozibadorlik – bu mahsulot sifatida korxonaning sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, korxonaning sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, uning faoliyati ijtimoiy yo‘naltirilgan marketing konsepsiyasiga shunchalik mos keladi. Korxonaning investitsion jozibadorlik darajasi korxona mulkdorlari, investorlar va davlat kabi investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlarining mahsulot iste’molchilarida muvozanat darajasi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan marketing konsepsiyasining samarali amalga oshirilishi investitsiya jarayonida ishtirok etuvchi institutlar manfaatlarining mos kelishi darajasini oshiradi. Oldingi ishlarda investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlari muvozanatidan kelib chiqqan holda korxonalarning investitsion jozibadorligini baholash metodologiyasi hamda investitsiya loyihalari jozibadorligini tahlil qilish bo‘yicha usullar to‘plami ishlab chiqilgan edi[3].

Tashkilotlar manfaatlarining muvozanat darajasini aniqlash maqbulroq investitsiya obyektini tanlashga imkon beradi, ammo korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar yoki yo‘llar haqidagi savolga javob bermaydi. Investitsiyalarga asoslangan korxonaning jadal rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan sabablarni tushunish uchun investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlarini qondirish darajasini tahlil qilish va ulardan ko‘proq ta’sir ko‘rsatadiganlarini ajratib ko‘rsatish kerak (1.3.1-rasm).




1.3.1-rasm: Investitsiya jarayoni subyektlarining manfaatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni buyurtma qilish sxemasi

1 Бабаев М. Маркетинг инвестиционных проектов в строительстве [Електронний ресурс] / М. Бабаев // Журнал “Право и жизнь”. – Режим доступу: http://www.law-n-life.ru/arch/142/142-11.doc.

2 Бочарова И.Ю. Социально-этичный маркетинг в повышении корпоративной социальной ответственности [Електронний ресурс] / И.Ю. Бочарова // Электронный научный журнал “Управление экономическими системами”. – Режим доступа: http://uecs.ru/marketing/item/1603- 2012-10-20-05-04-15.

3 Коваленко Н.В. Забезпечення балансу інтересів суб’єктів інвестиційного процесу як фактор підвищення інвестиційної привабливості підприємства / Н.В. Коваленко, М.М. Мархайчук // Економічний вісник Донбасу. – 2013. – № 2. – С. 162-167.

Ushbu taklif etilayotgan manfaatlarni tartibga solish tuzilmasi shunday qurilganki, unda qoʻllaniladigan koʻrsatkichlar u yoki bu tarzda investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlariga taʼsir qiladi va ularning oʻzaro taʼsiri hamda joylashuv muvozanat darajasini aks ettiradi. Investitsion jarayonning asosiy subyektlaridan biri sifatida davlat manfaatlarini taʼminlash barcha darajadagi budjetlarga tushumlarni va tekshirilayotgan korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish hajmidan (D1) mablagʻlarni koʻpaytirishdan iborat. Shuning uchun milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmlarini (Q) oshirish davlat manfaatdor boʻlib, buning oqibati ham davlat daromadining oshishi hisoblanadi.

Davlatning yana bir ustuvor yoʻnalishi korxonalar tomonidan barcha darajadagi budjetlarga va maxsus fondlarga ajratmalarni oʻrganilayotgan korxona moddiy resurslar hamda xizmatlar isteʼmolini oshirish bilan koʻpaytirish. Ish bilan bandlikni oshirish (kadrlar sonini koʻpaytirish (XS) ham davlat manfaatlariga mos keladi. Shuni taʼkidlash kerakki, korxona qiymatining oshishi davlat uchun muhim boʻlsa-da, bu mamlakatning xalqaro bozordagi obroʻsini oshirishi bilan birga, iqtisodiy amaliyot budjet va turli darajadagi mablagʻlarga ajratmalar olishning ustuvorligini koʻrsatmoqda.

Investorlarning sxemaga boʻlgan qiziqishlari, asosan, investitsiya qilingan kapital (IK) miqdoriga qarab iqtisodiy qoʻshilgan qiymatning (IQQ) oʻsishi koʻrsatkichlari, shuningdek, qayta investitsiya va toʻlov manbai sifatida korxonaning sof foydasi (SF) bilan ifodalanadi. Korxona egalari, aksiyadorlar qiymatning oshishi bilan bir qatorda, yetarli miqdorda investitsiyalarni jalb qilish, foydaning ortishi, korxonaning rivojlanish istiqboliga taʼsir etuvchi ichki jarayonlar mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmining oʻsishida, tannarxning kamayishida ishlab chiqarish, uning sifatini oshirish va natijada sotishdan tushgan daromadning oshishi namoyon boʻladi.

Faqat investorlarning manfaatlarini yoki faqat davlat manfaatlarini aks ettiruvchi omillarni ajratib boʻlmaydi, chunki tanlangan barcha omillar maʼlum maʼnoda ularning jamoaviy manfaatlarini amalga oshirish imkoniyatini aks ettiradi. Shuning uchun investitsiya jarayonining ayrim subyektlari manfaatlarini qondirish darajasini miqdoriy oʻlchash uchun har bir subyekt uchun manfaatlarni qondirish nuqtayi nazaridan eng muhim boʻlgan omillarni tanlash tavsiya etiladi.

Muayyan korxona faoliyati bilan bogʻliq investitsiya jarayonining har bir alohida subyektining manfaatlarini qondirish darajasi toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlgan holda, nomutanosiblik sabablari toʻgʻrisida xulosa chiqarish va investitsiya manfaatlari muvozanatini yaxshilash boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Surxondaryo viloyatining 2010–2023-yillarda investitsion jarayon subyektlari manfaatlarini qondirish tahlilini oʻtkazish uchun dastlab interval usulidan foydalangan holda 3 guruhga (yomon, oʻrta va yaxshi ) ajratib ushbu holatlar boʻyicha manfaatlar balansi oʻrganiladi (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval: Surxondaryo viloyatining 2010–2023-yillarda investitsion jarayon subyektlari manfaatlarini qondirish tahlili[4]

| Koʻrsatkich | Juda yomon | Yomon | Oʻrta | Yaxshi | Oʻsish surʼati | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Yomon | Oʻrta | Yaxshi |
| Investitsion kapital-IK, mlrd. soʻm | 2817,9 | 7143,1 | 11468,2 | 15793,0 | 2,54 | 1,61 | 1,38 |
| Iqtisodiy qoʻshilgan qiymat-IQQ, mlrd. soʻm | 220,5 | 434,2 | 648,0 | 861,7 | 1,97 | 1,49 | 1,33 |
| Investitsiya qilingan korxona tomonidan mahsulot sotish hajmidan maqsadli jamgʻarmalarga va barcha darajadagi budjetlarga tushumlar shaklida davlat daromadi-D1, mlrd. soʻm | 1286,4 | 5575,2 | 10512,5 | 11857,7 | 4,33 | 1,89 | 1,13 |
| Korxonalarning mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan daromadi-SOD, mlrd. soʻm | 8269,9 | 27527,1 | 52801,5 | 120888,2 | 3,33 | 1,92 | 2,29 |
| Korxonalarning yalpi foydasi-KYF, mlrd. soʻm | 918,9 | 5667,3 | 15027,1 | 53422,1 | 6,17 | 2,65 | 3,56 |
| Korxonalarning sof foydasi-KSF, mlrd. soʻm | 135,6 | 1532,3 | 7259,5 | 22210,7 | 11,3 | 4.74 | 3,06 |
| Ishlab chiqarish hajmi-Q, million tonna | 271,2 | 5034,7 | 18667,3 | 49421,4 | 18,57 | 3,7 | 2,65 |
| Mahsulotlarni sotish hajmidan maqsadli jamgʻarmalarga va barcha darajadagi budjetlarga tushumlar koʻrinishidagi davlat daromadi-D2, mlrd. soʻm | 2576,4 | 11601,7 | 110837,1 | 882525 | 4,5 | 9,55 | 7,96 |
| Korxona tomonidan isteʼmol qilingan moddiy resurslar va xizmatlar hajmi-N, mlrd. soʻm | 6644,4 | 26734,4 | 176151,8 | 1134675 | 4,02 | 6,59 | 6,44 |
| Xodimlar soni-XS, ming kishi | 430 | 462 | 517 | 628 | 1,07 | 1,12 | 1,21 |

4 manba: Surxondaryo viloyati statistika boshqarmai maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadval natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining 2010-2023-yillarda investitsion jarayon subyektlari manfaatlarini qondirish tahliliga ko'ra, yomon korxonalar guruhi qolgan guruhlarga nisbatan yuqori o'sish darajasiga ega bo'lganligi ko'rinib tursa-da, ammo guruhga kiruvchi korxonalar soniga nisbatan olganda investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlarining yuqori muvozanatini 77,4 % bilan yaxshi guruhga kiruvchi korxonalar va o'rtacha manfaatlar balansini mos ravishda 54,8 %ni ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlar investitsiya jozibadorligini baholashning taklif etilayotgan usuli universaldir, chunki u loyiha samaradorligining asosiy an'anaviy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi va shuning uchun ham mulkchilik va sanoatning har qanday shaklidagi hududlar va korxonalar uchun mos keladi. Bundan tashqari, investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlarining mutanosiblik darajasini hisobga olgan holda, loyihalarning jozibadorligini yangicha tahlil qilish mumkin bo'ladi, bu bilan bog'liq holda quyidagi afzalliklar yuzaga keladi:

- *birinchidan,* hududlar investitsiya jozibadorligini baholashning mavjud usullaridan farqli o'laroq, bu usul investitsion loyihalarni nafaqat iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida, balki institutlar manfaatlari muvozanati darajasidan kelib chiqib tanlash imkonini beradi. Bu davlat, korxona mulkdorlari va boshqalar manfaatlarini katta kelishuvga erishgan taqdirda, iqtisodiy samaradorlik nisbatan yetarli emasligi sababli loyihani jozibador deb tasniflash kerak, chunki u qisqa muddatli iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan loyihalarga qaraganda davlatning iqtisodiy xavfsizligini qo'llab-quvvatlash va oshirish nuqtayi nazaridan ko'proq istiqbolli hisoblanadi;
- *ikkinchidan,* taklif etilayotgan usul doirasida korxonalarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar yanada jozibador bo'lib, ularning investitsiya faoliyati asosiy manfaatdor tomonlarning talablariga ko'proq mos keladi, ya'ni korxonaning ichki qiymati, uning barqaror uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydigan (korxona egalarining manfaatlari), eng katta makroiqtisodiy samarani olish, soliq tushumlarini qisqa muddatda "ishlab chiqarish" mumkin emasligini hisobga olgan holda, investitsiya faoliyatini oshirishga qaratilgan korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishi (davlat manfaatlari) bilan solishtirganda, qisqa muddatda foyda olish, maqbul darajadagi tavakkalchilik (investor manfaatlari) bilan solishtirganda ustuvor bo'lishi;
- *uchinchidan,* hududlar investitsiya jozibadorligini baholashning taklif etilayotgan usuli davlat boshqaruvi organlari tomonidan sanoatni rivojlantirish siyosatini shakllantirish, ularning samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilishi mumkin, chunki bu nafaqat samaradorlikni ta'minlash talablariga, balki investitsiya loyihalarini tanlashga imkon beradi;
- *to'rtinchidan,* hududning investitsion jozibadorligini tahlil qilishda korxonadagi investitsiya jarayoni subyektlari manfaatlarining muvozanat darajasini baholash korxonaning barqaror rivojlanishining potensial istiqbollarini hisobga olishga imkon beradi va milliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarning investitsion jozibadorligini oshirish va jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlash uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni tanlash uchun asos bo'ladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. "Ostroh Academy". 2017. No. 4(32). P. 88–91.Барский Ю.М., Александренко 2.И.В. Инвестиционная привлекательность региона (на примере Волынской обла Karkich I.O. Investment attractiveness of regions of Ukraine. Scientific notes of the National University сти). URL: https://eprints.oa.edu.ua/6476/1/58.pdf (дата обращения: 10.08.2020).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.
4. Бабаев М. Маркетинг инвестиционных проектов в строительстве [Електронний ресурс] / М. Бабаев // Журнал "Право и жизнь". – Режим доступу: http://www.law-n-life.ru/arch/142/142- 11.doc.
5. Бочарова И.Ю. Социально-этичный маркетинг в повышении корпоративной социальной ответственности [Електронний ресурс] / И.Ю. Бочарова // Электронный научный журнал "Управление экономическими системами". – Режим доступа: http://uecs.ru/marketing/item/1603- 2012-10-20-05-04-15.
6. Коваленко Н.В. Забезпечення балансу інтересів суб'єктів інвестиційного процесу як фактор підвищення інвестиційної привабливості підприємства / Н.В. Коваленко, М.М. Мархайчук // Економічний вісник Донбасу. 2013 – № 2. – С. 162-167.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.